



**1991-yildan  
chiqa boshlagan**

**2023-yil. 11-son**

**ISSN 2010-5584**

# TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI  
VAZIRLIGINING ILMIY-METODIK JURNALI

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ  
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА  
ДОШКОЛЬНОГО И  
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ  
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

**Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

**LANGUAGE AND LITERATURE  
TEACHING**

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz til\_adabiyot@mail.uz www.tilvaadabiyot.uz

**AVAR SHOIRI RASUL HAMZATOV TAVALLUDIGA 100 YIL**



Ushbu sonda



TAHLIL

Pushkin va Cho'lpox

3  
bet



TILSHUNOSLIK

Madaniyatlararo  
muloqot kompetensiyasi  
rivojlanishidagi asosiy  
nazariyalari

10  
bet



TADQIQOT

Hayvon xatti-  
harakati ishtirok  
etgan maqollarning  
lingvomarkaz  
xususiyatlari

20  
bet



ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Тема любви в лирике  
Чулпана

54  
bet

## CHO'LTON IJODIDA XOTIN-QIZLAR OBRAZINING BADIY-ESTETIK XUSUSIYATLARI TALQINI

Jadid dramaturgiyasiga xos xususiyatlari, ijodkor tafakkurida shakllangan g'oyalari, go'zallik, nafosat, zamonaviylik va shu kabilar insoniyat buguni va kelajagiga xizmat qiluvchi estetik idealni yaratishda ishtirok etadi. "Eng oliv estetik qadriyat amaliy, axloqiy, ma'rifiy va xususiy qimmatlarning yonida turadigan mohiyat emas, u mazkur qimmatlarning yaxlitligidan tashkil topadi". Ya'ni, mukammallikni ta'min etuvchi bu xildagi shartlilik birlashmasidan badiyl asarda timsol obraz hosil bo'ladi. O'ziga xos betrror xarakter mohiyatning obrazi sifatida insonning iqtisodiy, siyosiy, ma'nnaviy kamoloti masalalari yechimida ishtirok etadi [1: 14].

Cho'lpon o'z asarlarida o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini badiiy tadqiq etar ekan, har bir jamiyatning taraqqiyot darajasi shu jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati bilan belgilanadi, degan g'oyani aks ettirgan. Umuman, o'zbek xotin-qizlarining mustamlakachilik sharoitidagi taqdiri tasviri Cho'lpon she'riy ijodining ham, kichik epik asarlarining ham, "Kecha va kunduz" romanining ham asosiy g'oyaviy yo'naliшини belgilab bergen.

Cho'lpon ayol qismatini tasvirlar ekan, ayollardagi o'ta soddalik, ilmsizlik, dunyodan bexabar yashash va, albatta, intilish, harakatning yo'qligi sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ayanchli taqdirini oshkora qalamga oladi. Cho'lpon Sharq ayligiga xos hayo, iffat saqlangan holda o'zbek ayoli ham bilim olishi kerak, dunyoviy ilm shu'lasidan bahramand bo'lishi kerak, fikr-mulohazasini oshkora avj pardada aytishi kerak deydi. Bularga erishmoq uchun esa yana va yana o'quv kerak, harakat qilish kerakligini ta'kidlaydi. Adib nazarda tutgan hayotiy haqiqat esa bunday edi: yo'lda ketayotgan inson boshini ortiq darajada yerga qaratib yuborar ekan, u oyoq ostidagi tuproqni ko'radi, bu holatdan esa ikki xil natijani kutish mumkin:

1) boshini juda egib yuborgan kishi oldidagi yo'lni ko'rmaydi va u to'siqqa borib uriladi;

2) ortiqcha egilgan bosh shu alfovza ketaversa, sekin-asta bel egiladi, tizzalar bukilib tiz cho'kadi, oxir-oqibat esa tuproqqa qorishadi.

Ko'rinib turganidek, har ikkisining ham natijasi halokatdir. Shu bois, adib har narsada me'yor bo'lishi kerak degan xulosaning tarafdori. Tajribali adibning "Oktabr qizi" hikoyasi ham alamli haqiqatdan sizib chiqqan asadir. Hikoyada o'zbek ayolining dardlari obrazlar orqali ayanchli talqin etiladi. Diltortar ovozi bilan dildagi dardlarни kuyga solgan qizning holatini ifodalashdagi mahoratga qarang: "O'zbek qizining o'z og'zidan, o'z tili bilan to'kilgan o'zbek dardlari, uning dutorining tovushlari bilan birga o'zbek xalqining zang bosib kelayotgan dillariga shuncha yaxshi ta'sir qildikim, zanglari sekin-sekin yuvilib, artilib borg'ondek bo'ldilar. Shuning uchun xalq ruhi uni sevdidi". Uni sevgan xalq unga Vannaychaxon deb nom berdi. Cho'lpon mahorati bu bilan cheklanib qolmadi. Hamisha tabiatga oshno bo'lgan ijod kishisi Cho'lpon qizning o'limi xabarini bunday tasvir etadi: "Yiroqlardan qarg'alarning mudhish nag'malari, shodlik kuyulari eshitildi. Borib ko'rdilar: paxta kabi oppoq tan, ko'k qarg'a shohidan ko'yjak - gonga belangan. Bosh tandan ayrilg'on holda, qon sur-

kalgan qora sochlar ustiga yopilg'on. Go'zal qora ko'zlar jahannam chuqurligiga botqonlar. Yuzdag'i nurlar yiroq o'lkalarni eslab uchib ketgan qushlar bilan birga ketganlar".

Zebi ketma-ket baxtsizliklarga uchrasa ham romaniga qanday kirib kelgan bo'lsa, shundayligicha qoladi. Zebining bu holatini biz taqdirdosh, qismatdosh, darddosh bo'lib, xavotir bilan kuzatamiz. Zebining baxtsiz bo'lishi mamlakatdagi zulm-zo'rovonlik ustuvor ekanligidadir. Fikrimizning dalili sifatida Zebining ilojsizligi o'sha davr ayollar erksizligi sifatida ochib beriladi. Zebi, hurkak ohu kabi go'zal va ilojsiz. Uning qalbi shu qadar tozaki, yomonlik haqida o'ylash nima ekanligini ham tushunib yetmaydi. U insonlarni sevib yashaydi. Razolat to'lib yotgan dunyoga muhabbat ko'zi bilan boqadi, biroq jaholat tozalik va go'zallik bilan kelishmaydi, go'dakday beg'ubor bo'lgani uchun ham bag'ri ifloslik va kirga to'la hayot uni sig'dirmaydi, shudringday toza va chechakday pokiza bo'lgani uchun hayotning shafqatsiz va badbo'y havosida nafasi bo'g'iladi. Ushbu asar ayollarni jaholat botqog'idan chiqishiga qaratiladi.

Ayollar turmushidagi haqsizlik mutelik yangi zamon ijodkorida norozilik kayfiyatni uyg'otgan, muammoning faqatgina she'riyatga sig'masligini sezgan adib nasriy asarlarida ham masala yechimiga javoblar qidirgan edi. "Qor qo'ynida lola" hikoyasida Cho'lpon Shafoatxonning qismati ortida aslida mutaassiblik, ko'r-ko'rona e'tiqod turganini mahorat bilan ochib bergen. Asar qahramoni Samarcand akaning "bitta qizimiz bo'lsa, hazrat eshonimizg'a tutdik, sadag'aları ketsun!" degan gapidan xotini Qumribush "oqardi, ko'kardi, suvratdek qotib devorga suyanib qoldi...". Qumribush erining qaroriga mana shunday javob qaytarishi mumkin xalos, uni o'zgartirishga, qizining taqdiriga aralashishga haqli emas. Qumribush ruhiyatidagi "oqarish, ko'karish, suvratdek qotib devorga suyanib qolish" shaklidagi isyon Qurbonbibi qalbida junbushga keldi. Zamon oqimiga qarshi bormaslik, er-xotin munosabatidagi tubsiz jarlik, dardini to'rt devordan oshirib ayta olish imkonining o'ta cheklanganligi uni aqldan ozdiradi. Adib davr fojiasini ayollar taqdiri vositasida tasvirlaydi.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" asaridagi o'xshash voqealar, ayollar obrazining "Boy ila xizmatchi" dramasi da yoritilishini quyidagicha solishtirib o'tadi. Ikkala asarda ham voqe-hodisa boyning uyida ichki va ayollarga xos bo'lgan chirkin hayotni ko'rsatib beradi.

Xulosa qilib aytganda, Cho'lponning asosiy maqsadi ham mavjud tuzimni tag-tomiri bilan o'zgartirish edi. Zebi faqat ayollik latofati va olijanob insoniy fazilatlari bilangina emas, ayni paytda xushovozi bilan barchaning e'tiborini tortadi. Ammo ijtimoiy tengsizlik hukumron bo'lgan va ayollar qadr-qimmati oyoqosti qilingan jamiyatda Zebining orzu-havaslari yanchiladi. Bu asar orqali Cho'lpon Zebi va unga o'xshagan jabrlanganayollar taqdiriga achinadi. Ularning ozod bo'lishini istaydi. O'z taqdirini o'zi hal qilishini, hur-erkin, ilm-ma'rifatli bo'lishini istaydi va ushbu g'oyalalarini asarlarida ayollar obrazi orqali yoritib beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davlatova A. Nasriy asarlarda estetik ideal talqini (XX asr boshlari o'zbek adabiyoti misolida). Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2018.
2. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent, 2008.
3. Qosimov B. Milliy uyg'onalish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
4. Safo Matjon. O'zbek adabiyoti ma'ruza majmuasi. – Toshkent, 2006.
5. Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005.



O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2014-yil 19-dekabrda 0055-raqam bilan qayta ro'yxtatga olingan.

2023-yil.

11-sin.

#### Tahrir hay'ati:

Hilola UMAROVA  
Dilshod KENJAYEV  
Nizomiddin MAHMUDOV  
Yorqinjon ODILOV  
Nasirullo MIRKURBANOV  
Jabbor ESHONQULOV  
Valijon QODIROV  
Baxtiyor DANIYAROV  
Abdurahim NOSIROV  
Tolib ENAZAROV  
To'lqin SAYDALIYEV  
Ravshan JOMONOV  
Zulkumor MIRZAYEVA  
Qozoqboy YO'LDOSHEV  
Tajixon SABITOVA  
Salima JUMAYEVA  
Nilufar NAMOZOVA  
Qayum BAYMIROV  
Lutfullo JO'RAYEV  
(bosh muharrir o'rinsbosari)

#### Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

#### Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV  
Gulnoza VALIYEVA

#### Nashr uchun mas'ullar:

Nilufar NAMOZOVA  
Nigora URALOVA  
Yuliya MUSURMANOVA

#### Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri  
Navoiy ko'chasi 30-uy.  
Telefon: (98) 121-74-16,  
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45,  
(71) 233-03-67.  
e-mail: til\_adabiyot@mail.uz  
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

Jurnaldan ko'chirib bosilgan maqolalar "Til va adabiyot ta'limi" dan olindi, deb izohlanishi shart.

Jurnalda nashr etilgan maqolalarda mualliflarning tahririyat nuqtayi nazariga muvofiq kelmaydigan fikr-mulohazalar bosilishi mumkin.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi vi mualliflarga qaytarilmaydi.

Mualliflarning ismi va familiyasi shaxsini tasdiqllovchi pasportiga muvofiq yoziladi.

Bosmaxonaga. 2023.25.11, da topshirildi. Ofset usulida chop etildi. Qog'oz bichimi 60x841/8. Sharqli bosma tabog'i 6.0. "Arial" garniturasiga. 10, 11 kegl. "ECO TEXTILE PRODUCT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Manzil: Toshkent sh. Mirobod tum., Matbuotchilar ko'chasi 32-uy. Buyurtma — Adadi 3550 nusxa. Bahosi kelihilgan narxda.

#### TIL VA ADABIYOT

#### TA'LIMI

Я ПРЕПОДАВАНИЕ  
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

# TIL VA ADABIYOT

## TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

## Я ПРЕПОДАВАНИЕ ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

## L ANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY  
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION  
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

#### MUNDARIJA

##### TAHLIL

Shahlo Hojiyeva. Pushkin va Cho'lpion .....	3
Gulhayo Bo'riyeva. Bolalar adabiyoti spetsifikatsiyasi .....	4
Zavqiyon Fayzullayev. Erondag'i turkiy adabiy muhit va Asriy Tabriziy .....	6
Baxtiyor Daniyarov. O'zbek tilini sohada qo'llash fanidan darslar sifatini zamonaviy texnologiyalar asoida ta'minlash .....	8

##### TILSHUNOSLIK

Nasiba Jakbarova. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlanishidagi asosiy nazariyalar .....	10
Nohida Mukhtorova. Teaching academic vocabulary to law students .....	11
Rustam Samandarov. Applikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi mavqeyi .....	13
Nigorakhon Ruzibaeva. Linguistic features of antithesis as a figure of speech .....	15

##### TARJIMASHUNOSLIK

Miraziz Rafov. Difficulties in simultaneous translation during interpretation .....	16
---	----

##### TADQIQOT

Mohira Xalikova. Yuca-dunyo va lifelong learning paradigmasi diskursida kompetentlik definitsiyasi .....	17
Dildora Turg'unova. Hayvon xatti-harakati ishtiroy etgan maqolarning lingvomental xususiyatlari .....	20
Oybek Toshmatov, Ahmad Yusuf Firdaus. Language teaching and learning processes: a focus on self-directed learning .....	22
Shahodat Raxmatullayeva. "Ona tili va o'qish savodxonligi" darslarida o'quv topshiriqlari ustida ishslash .....	24
Nasiba Erhanova. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining "Til va nutq" markazida bolalar nutqini rivojlantirish muammolari .....	27
Kamola Ulug'murodova. O'zbek mumtoz she'riyatida Layli obrazi .....	29
Ruxsora Murodova. Mirzo Olim Devona va uning "Ravzayi asror" dostoni .....	32

##### METODIK TAVSIYA

Kim Yun Hoe, Sadokat Khojieva. A study of the consonant pronunciation patterns of Uzbek Korean learners – focusing on intermediate learners .....	34
Nigora Sulaymonova. Eski o'zbek yozuvida ayn harfining o'ziga xos xususiyatlari .....	36
Sanobar To'rayeva. Iboralar orqali o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllanishidagi .....	38
Sarvinoz Sharipova. Ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayonidagi muammolar va ularning yechimlari .....	40
Ziyada Djumanazarova. The importance of academic English in students' academic performance .....	42

##### KICHIK TADQIQOT

Mahbubaxon Temirova. O'zbek va qirg'iz paremik janrlari funksiyasi .....	43
Nigora Alisultonova. Chingiz Aytmatovni folklorqa qiziqitqagan omillar .....	45
Zarnigor Ramatshoyeva. Bolalarga xorijiy tillarni o'rgatishning samarali usullari .....	46
Gulshodaxon Tojiboeva. Cho'lpion ijodida xotin-qizlar obrazining badiy-estetik xususiyatlari talqini .....	47

##### ИСПОЛЬЗУЙТЕ ЭТИ МАТЕРИАЛЫ

Малоҳат Усмонова. Игры на уроках русского языка при изучении наречий.....	49
Беккенбауэр Реймов. Использование метода компонентного анализа английских фразеологизмов, характеризующих эмоциональное состояние человека.....	50
Нилуфар Мулаахунова. Развитие речи узбекских школьников средствами произведений искусства на уроках русского языка как иностранного.....	52

##### ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Николай Ильин. Тема любви в лирике Чулпана .....	54
Феруза Иркабаева. Природный мир цикла М.А.Булгакова «Записки юного врача».....	55
Нилуфархон Юлдашева. Проблемно-тематическое поле в рассказе Ильдара Абузярова «Троллейбус, идущий на восток».....	56

##### НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Фахриддин Абдурахманов. Трансформационно-дистрибутивный метод как модель интерпретации семантики предложного падежа .....	58
---	----

Светлана Им. Основные подтексты к исследованию агрессивного поведения .....	60
---	----

Шахзода Абдулаева, Шахноза Алимова, Алишер Мусулмонов. Использование технологий флешмоба в высшем образовании .....	62
---	----

Музаффар Ходжаканов. Сопоставительный анализ терминов маркетинга в русском и узбекском языках .....	65
---	----

Хусниябону Рахимова. Особенности сравнительного выражения в русских пословицах со сравнительной степенью наречия.....	69
---	----

Сабоҳат Курбанова. Особенности семантики орнитологических образов в русской поэзии XVIII-XX веков .....	72
---	----

Гульнозга Кодирова, Садокат Шонизевова. Тенденции и вызовы в области когнитивной лингвистики в постмодернистской перспективе .....	73
--	----

##### ФОРМЫ ОБУЧЕНИЯ

Азиза Балтабаева. Читательская конференция как средство получения «серьезного Fun» на уроках литературы в иноязычных группах .....	75
--	----

Ферузакон Якубова. Внедрение технологии эдьютийнмента в образовательную систему как элемент успеха в обучении .....	76
---	----

Илина Сиддикова. Применение технологии сторителлинга на уроках литературы .....	78
---	----

##### ОБСУЖДАЕМ, СПОРИМ

Зулайхо Низомитдинова. Гендерные стереотипы в средствах массовой информации .....	80
---	----

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosati qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalar (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsya etilgan milliy ilmiy nashr.